

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA JANUBIY KOREYA
HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN (1991-2025 yillar)**

**Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti Pedagogika va ijtimoiy gumanitar
fanlar fakulteti Tarix kafedrası 1- kurs magistr Radjabov Jasurjon
Ziyodulloyevich**

Ilmiy rahbar : t.f.n., dots. Jahongirov B.B.

Ilmiy maslahatchi: t.f.n dots Tursunov N.N

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar
fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchilari**

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgach, xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi tub o‘zgarishlar uchun mustahkam asos bo‘ldi. Ushbu jarayonda Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlik aloqalarining shakllanishi va izchil rivojlanishi alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston va Janubiy Koreya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil 29-yanvarda o‘rnatilgani mustaqil yosh davlatimiz uchun yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Ushbu tarixiy qadam ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik jarayonlariga asos soldi va taraqqiyotga keng yo‘l ochdi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Janubiy Koreya, hamkorlik, diplomatik aloqalar, investitsiyalar, ta‘lim, madaniyat, innovatsiya, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, savdo.

Аннотация: Установление Республикой Узбекистан после обретения независимости отношений сотрудничества с зарубежными странами стало прочной основой для фундаментальных перемен. В этом процессе особое место занимает формирование и последовательное развитие отношений сотрудничества с Республикой Южная Корея. Установление дипломатических отношений между Узбекистаном и Южной Кореей 29 января 1992 года ознаменовало начало нового этапа развития нашего молодого независимого

государства. Этот исторический шаг заложил основу для многосторонних процессов сотрудничества между двумя странами и открыл широкий путь для развития.

Ключевые слова: Узбекистан, Южная Корея, сотрудничество, дипломатические отношения, инвестиции, образование, культура, инновации, экономика, здравоохранение, торговля.

Abstract: The establishment of cooperative relations with foreign countries by the Republic of Uzbekistan after gaining independence has become a solid basis for fundamental changes. In this process, the formation and consistent development of cooperative relations with the Republic of South Korea occupies a special place. The establishment of diplomatic relations between Uzbekistan and South Korea on January 29, 1992 marked the beginning of a new stage of development for our young independent state. This historic step laid the foundation for multifaceted cooperation processes between the two countries and opened a wide path for development.

Keywords: Uzbekistan, South Korea, cooperation, diplomatic relations, investments, education, culture, innovation, economy, healthcare, trade.

KIRISH

Davlatlararo do'stona munosabatlarning shakllanishi, eng avvalo, o'zaro ishonch, hurmat va manfaatdorlikka asoslanadi. O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorlikda aynan shu mezonlar aks etgan bo'lib, bugunga kelib keng ko'lamli va mustahkam rishtalari bilan mustahkamlandi. Ikkala mamlakatning umumiy qadriyatlarini, xalqlarning bir-biriga nisbatan do'stona munosabati, iqtisodiy va madaniy hamkorlik uchun mavjud shart-sharoitlar, avvalo, rasmiy tashriflar va oliy darajadagi uchrashuvlar orqali mustahkamlandiki, bu O'zbekiston va Koreya munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlaridir. Bugungi O'zbekiston va Janubiy Koreya imkoniyatlarida hamkorlik yo'nalishlari ancha kengaygan. Dastlab, diplomatik sohada boshlangan muloqot qisqa vaqt davomida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, fan-ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari, investitsiyalar, logistika va boshqa ko'plab sohalarni qamrab oldi. Davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari, hukumatlararo

komissiyalar faoliyati, o'zaro bitimlar va protokollar imzolanishi bilan hamkorlik asoslari mustahkamlandi. Jumladan, har ikki davlat orasidagi yuqori martabali tashriflar ikki tomonlama munosabatlarda yetakchi o'rin tutdi. O'zbekiston va Koreya Respublikasi Prezidentlari o'rtasida o'tgan uchrashuvlar bugungi do'stlik va hamkorlikning asosiy itak kuchiga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda Koreya Respublikasi O'zbekiston Respublikasi uchun muhim davlatlardan biri hisoblanadi. Davlatlarimiz o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992 yil yanvar oyida o'rnatilgan. 2006 yildan buyon davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik Strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan. Janubiy Koreya O'zbekiston tashqi savdosida yuqori ulushga ega bo'lgan besh davlatdan biridir. Ushbu maqolada davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarning o'rnatilish tarixi, rivojlanish tendensiyalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar yo'nalishlardagi hamkorlik masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, so'nggi to'rt yil davomida amalga oshirilgan oliy darajadagi uchrashuvlar yakunlari, yangi yo'nalishlardagi hamkorlik natijalari hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi aloqalarga alohida urg'u beriladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Tashqi siyosiy yo'nalishda mustaqil O'zbekiston tez sur'atlarda rivojlanayotgan dunyoning barcha davlatlari, shu jumladan, Koreya Respublikasi bilan ham yaqindan hamkorlik qilishga alohida e'tibor bermoqda. Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib, ya'ni 1991 yil oxirlarida tan olgan va diplomatik aloqalar 1992 yil 29 yanvarda o'rnatilgan. O'tgan 33 yillik davrda ikki davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ushbu uchrashuvlarning har birida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim ahamiyatga ega kelishuvlarga erishganlar. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2006 yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolandi [1].

Savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi har ikki davlat uchun yirik imkoniyatlar eshigini ochdi. Janubiy Koreya O'zbekistonning ishonchli va strategik hamkoriga aylandi. Davlatimiz iqtisodiy taraqqiyotida Koreyaning yirik kompaniyalari, zamonaviy texnologiyalari, sarmoya va loyihalari muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston bozorlarida Janubiy Koreya mahsulotlari, xususan, avtomobil, elektronika, kimyo mahsulotlari, zamonaviy texnologiyalik qurilmalar va boshqa sohalar mahsuldorlikni oshirdi. O'z navbatida, O'zbekiston mahsulotlari ham Koreya bozorida o'z o'rniga ega bo'ldi. Savdo aylanmasi yildan-yilga o'sib bormoqda, investitsiyaviy loyihalar ko'lamini kengaytmoqda, qo'shma korxonalar soni ortib boryapti [2].

МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Investitsion hamkorlikda O'zbekiston va Janubiy Koreya aloqalari yanada rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. O'zbekiston iqtisodiyotiga janubiy koreyalik investorlardan jalb etilgan pullar barcha yirik tarmoqlarning modernizatsiyalashiga olib keldi. Xususan, energetika, kimyo sanoati, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash va innovatsion sohalar koreyalik investorlar ishtirokida sezilarli natijalarga erishmoqda. 2005-2015 yillar davomida investitsion loyihalarning soni va sifati oshdi, yangi quvvatlar barpo etildi, zamonaviy uskunalar joriy qilindi, buning natijasida iqtisodiy raqobatbardoshlik yuqoriladi. Madaniy-gumanitar sohada hamkorlik O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi do'stlik ruhiy-ma'naviy asosini tashkil etadi. Koreys diasporasi O'zbekistonda qadimdan istiqomat qilib, o'zaro hurmat va mehr-muhabbat muhitida yashab kelmoqda. Ushbu samarali hamkorlik natijasida turli sohalardagi qo'shma loyihalar, madaniy almashinuv dasturlari, til va adabiyot, san'at, kinematografiya, tarix va madaniyat yodgorliklari sohalarida boy tajribalar almashildi. Qo'shma festival va anjumanlar, madaniyat kunlari, ta'lim dasturlari doirasida o'zaro manfaatli hamkorlik mustahkamlanyapti. Universitetlar orasidagi hamkorlik doirasida yoshlar almashinuvi, professor-o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishlari va to'g'ridan-to'g'ri ilmiy hamkorlik

munosabatlari yosh avlod tarbiyasida, kasbiy salohiyatining oshishida ahamiyatli bo'lib kelmoqda [3].

Ta'lim yo'nalishida ham hamkorlik iliq aloqalarga asoslangan. O'zbek va Koreya oliy o'quv yurtlari o'rtasida o'nlab hamkorlik bitimlari tuzilgan. Koreya Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida o'zbekistonlik talabalar o'qiydi, o'qituvchilar tajriba almashadi. Shuningdek, hamkorlik dasturlari asosida turli grantlar, stipendiyalar ajratiladi, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, yangi o'quv dasturlar ishlab chiqilmoqda va tatbiq qilinmoqda. Har ikki davlat olimlari o'rtasidagi ilmiy izlanishlar natijalari fan taraqqiyotiga, innovatsiyalarni joriy qilishga zamin tayyorlamoqda. Sog'liqni saqlash sohasidagi munosabatlar ham tobora mustahkamlanmoqda. Janubiy Koreya tibbiyot sohasidagi ilg'or tajribalarini O'zbekiston bilan o'rtoqlashmoqda. Tibbiy kadrlar malakasini oshirish, zamonaviy klinikalar qurilishi, laboratoriyalar tashkil etilishi samarali yo'lga qo'yilgan. Har ikki mamlakat shifokorlari va tibbiyot xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish va kasbiy malakasini oshirish hamkorlikning yangi bosqichiga olib chiqmoqda [4].

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalar sohasidagi hamkorlik ham zamonaviy taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, davlat xizmatlarini elektron tarzda ko'rsatish, zamonaviy dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishda Koreya texnologiyalari mamlakatimizning texnologik rivojiga yangi sur'atlar berdi. Transport va logistika sohasidagi hamkorlikda Koreya kompaniyalari bilan birgalikda zamonaviy infratuzilmalar qurilmoqda, transport sohasida ilg'or texnologiyalar joriy qilinmoqda. Bu O'zbekistonning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorlik muhim xalqaro ahamiyatga ega. Ikkala davlat ham xalqaro tashkilotlarda bir-birini doimo qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida faoliyat olib boradi. Ikkala davlat o'zaro manfaatlarni, tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida qat'iy harakat qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida yuzlab hamkorlik bitimlari amalda, minglab hamkorlik loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi, o'n minglab fuqarolar, talaba-yoshlar, ishbilarmon doira vakillari yo'nalishda faol ishtirok etib kelmoqda. Har ikki davlat so'nggi uch o'n yillikdagi qadam-baqadam yaqinlashuvida mustahkam do'stlik, o'zaro ishonch, hamkorlik va taraqqiyotga erishdi. Yangi davr hamkorligi har ikki davlat xalqining manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Janubiy Koreya bilan hamkorlikning bugungi taraqqiyot bosqichi O'zbekiston uchun yuksak natijalarni keltirish bilan birga, iqtisodiy modernizatsiya va xalqaro nufuzni oshirishda mustahkam poydevor bo'lmokda. Iqtisodiyot, fan-ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari va boshqa sohalaridagi hamkorlik doimiy rivojlanib, hamorlik istiqbollari yanada kengaymoqda. Uzoq muddatli va samarali hamkorlikning zahari, ikki taraf uchun ochiq va ochiqlik tamoyili asosida davom etmoqda. Istiqlol yillaridan boshlab, bugungi kunga qadar O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorlik tarixini tahlil qilganda, bu munosabatlar har ikki tomon uchun samarali natijalar va taraqqiyot olib kelmoqda. Mamlakatlar asta-sekin o'zaro ishonch va manfaatdorlik tamoyillari asosida barcha yo'nalishda yaqin hamkorlik rishtalarini rivojlantirib bordi. Taraqqiyot strategiyasi va yutuqlarning asosi bo'lib xizmat qilgan do'stona munosabatlar, hamkorlik bitimlari, zamonaviy texnologiyalar almashinuvi, sarmoyalar va ilm-fan taraqqiyoti har ikki mamlakat kelajagiga mustahkam poydevor bo'ldi [5].

Keyingi yillarda ham O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yangi taraqqiyot strategiyalari ishlab chiqilmoqda, hamkorlikning istiqbolli sohalarida kengaymoqda. Xalqaro maydonda ham bir-birining manfaatlarini qo'llab-quvvatlash, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, zamonaviy texnologiyalar, madaniyat va turizm sohalarida ko'plab dasturlar hayotga tatbiq qilinmoqda. Taraqqiyotning yangi bosqichida asosiy e'tibor innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanishga qaratilgan. Bu ham yurtimiz taraqqiyoti, inson kapitalining o'sishi va xalqaro raqobatbardoshlikning mustahkamlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi almashinuvni faollashtirish, qo'shma ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar va tadqiqotlar o'tkazish maqsadida O'zbekiston oliy o'quv yurtlari Janubiy Koreyaning 30 dan ortiq universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bunga misol tariqasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi va Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bo'lib o'tgan ilmiy ma'ruza va seminarlarni keltirishimiz mumkin. Aytib o'tish joizki, Janubiy Koreyaning Seul universiteti tarkibida 2009-yildan beri faoliyat ko'rsatayotgan Yevroosiyo va O'rta Osiyo tadqiqotlari markazida mustaqillikdan keyingi O'rta Osiyo mamlakatlari tarixi va madaniyati faol tarzda o'rganilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi tarixi va madaniyatiga qiziqish ortganini kuzatishimiz mumkin.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari, o'tgan o'ttiz yildan ortiq vaqt mobaynida salmoqli natijalarga erishdi. Ikkala mamlakat o'zaro hurmat, ishonch va manfaatdorlik tamoyillari asosida do'stlik va strategik hamkorlik yo'lini tanladi. Har ikki davlat uzoq muddatli manfaatlar, taraqqiyot va tinchlik sari bir yoqadan bosh chiqarib, barqaror taraqqiyot strategiyasini amalga oshirmoqda. Bugun O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiyot, investitsiyalar, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa ko'plab sohalarda samarali natijalar bermoqda. Hamkorlik istiqbollari esa, kelgusida yanada kengayib, taraqqiyot va farovonlik uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bu hamkorlik O'zbekiston va Janubiy Koreya xalqlarining umumiy orzu-intilishlari, do'stlik va taraqqiyot sari harakatlarining yorqin namunasi, ikki davlat uchun baraka va farovonlik kafolati bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hakimov, Obid. "O'zbekistonda-Koreya iqtisodiy hamkorlik istiqbollari." The Korea Post jurnali. <https://review.uz/post/uzbekistan-koreva-perspektiv-ekonomicheskogo-sotrudnichestva>

2. Li, Dji Yun. “Koreya va O‘zbekistonning iqtisodiy hamkorlik shartnomasi.” Jamiyat va boshqaruv, 2009, №1.
3. Musaev, B. Mehnat huquqi: uni himoya qilish borasida. O‘zbekiston va Koreya Respublikasi hamkorligi. Toshkent, 2017. – B. 76.
4. Said, Sanjar. “O‘zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari: tenglik, do‘stlik, hamjihatlik.” <https://kun.uz/uz/news/2015/11/06/ozbekiston-janubiy-koreya-munosabatlari-tenglik-dostlik-hamjihatlik>
5. Samiyev, Xurshidbek. “O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi hamkorlik natijalari.” <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorlik-natijalari>
6. Xan, V.S. Koreya tarixi. Toshkent, 2011.